



O'QUVCHILARNING ILMIY DUNYOQARASHINI SHAKLLANTIRISH

Shahrisabz davlat pedagogika instituti Boshlang'ich ta'lim yo'nalishi

2-kurs talabasi

Ahmadjonova Shahnoza Ergash qizi

Annotatsiya: Ushbu maqolada ta'lim muhitida o'quvchilarni ilmiy dunyoqarashini shakllantirish, tafakkurni shakllantirish, aqliy tarbiya, ilmiy dunyoqarashning asosiy belgilari, o'quvchi dunyoqarashini shakllantirishning shakl, metod va vositalarining nazariy metodologik asoslari to'g'risida ma'lumotlar o'rin olgan. Ta'limning shaxsga yo'naltirilganligi, o'quvchiga qaratilganligi va o'qituvchining o'quvchilar bilan o'zaro munosabati, ma'naviy-axloqiy jihati, insonparvarlik qadriyatlar almashinuvi jarayoni ko'rib chiqilgan.

Kalit so'zlar: dunyoqarash, tafakkur, o'quvchi, aqliy tarbiya, shaxs, intellektual, hayotiy qadriyatlar, estetik nuqtayi nazarlar

Abstract: This article contains information on the formation of the scientific worldview of students in the educational environment, the formation of thinking, intellectual education, the main features of the scientific worldview, the theoretical methodological foundations of the forms, methods and means of forming the student's worldview. The orientation of education to the individual, the orientation to the student and the interaction of the teacher with students, the spiritual and moral aspect, the process of exchanging humanistic values are considered.

Keywords: worldview, thinking, student, intellectual education, personality, intellectual, life values, aesthetic points of view

**Kirish.**

Bugungi globallashuv va ilm-fan jadal sur'atlar bilan rivojlanayotgan davrda yosh avlodning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish ta'lim tizimining asosiy vazifalaridan biri hisoblanadi. Ilmiy dunyoqarash o'quvchilarda borliqni ilmiy asosda idrok etish, hodisa va jarayonlarga ongli munosabat bildirish, mustaqil fikrlash va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalarini tarkib toptiradi. Ayniqsa, umumta'lim maktablarida, xususan, boshlang'ich sinflardan boshlab ilmiy dunyoqarashni shakllantirish o'quvchilarning keyingi ta'lim bosqichlaridagi muvaffaqiyatli o'qishiga mustahkam poydevor bo'lib xizmat qiladi. Ta'lim jarayonida ilmiy dunyoqarashni shakllantirish nafaqat bilim berish, balki o'quvchilarda hayotiy pozitsiyani, ijtimoiy faollikni, voqelikka tanqidiy yondashuvni rivojlantirishni ham nazarda tutadi. Shu boisdan hozirgi zamon pedagogikasida o'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini shakllantirish masalasi nazariy va amaliy jihatdan dolzarb muammolardan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur maqolada o'quvchilarda ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning pedagogik mazmuni, uning ta'lim jarayonidagi o'rni hamda samarali usullari yoritib beriladi.

Asosiy qism.

Insonlarning ilmiy dunyoqarashga ega bo'lishi hamma zamonda ham muhim ahamiyat kasb etmoqda. Ilmiy dunyoqarashga ega bo'lgan shaxs dunyoda ro'y berayotgan voqea-hodisalar, tabiat, jamiyat hamda ilm sohasiga doir hodisalar va fikrlarning mohiyatini to'g'ri talqin qila oladi va hech qanday dalil bilan o'z aksini topmagan fikr va voqealarni ishonchli deb qabul qilmaydi. Ilmiy dunyoqarashga egalik shaxsning mustaqilligi, erkin fikr yuritishi, fikrlarining aniq isbotini topganligi va mantiqiyligi bilan ajralib turadi. Bunday shaxslar har xil oqimlarga va inson ongini o'zgartirishga qaratilgan g'oyalar ta'siriga tushib qolishi amrimahol. Bunday insonlar o'ziga va kelajagiga ishonchi baland. Boshlang'ich sinf o'quvchilarining ilmiy dunyoqarashni shakllantirish muhim ahamiyat kasbetadi.



O'zbekistonda Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyev "Farzandlarimizning qobiliyatini ro'yobga chiqarishga bolalikdan etibor berib, ularning kamoloti uchun barcha imkoniyatlarni safarbar etsak, yurtimizdan yana ko'plab Beruniylar, Ibin Sinolar, Ulug'beklar yetishib chiqadi, men bunga ishonaman" deb ta'kidlagan edilar. Yosh avlodning dunyoqarshinishakllantirish o'quvchilarnining har tomonlama yetuk, intellektual salohiyatli, erkin fikrga eganutqiravon, komil inson bo'lib yetishishiga ilmiy dunyoqarash asos bo'lib xizmat qiladi deb talqin qilsak maqsadga muvofiq bo'ladi. Bolada ilmiy dunyoqarash o'z-o'zdan payda bo'lmaydi. Buning tag zahirida o'qituvchi o'quvchining birgalikdagi mehnat faoliyati va o'qituvchining mas'uliyati vazifasi yotadi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirish ikki yo'l: tajriba va mantiq bilan hosil qilinadi. O'qituvchining o'quvchilarga muammoli masalalar va ziddiyatlar bilan yuzlanishi, o'quvchilarning masalaga yechim topishga ilmiy yondashuviga olib keladi. Bu holat o'quvchilarning mustaqil izlanishi, o'z ustida ishlashi va ilmiy kitoblarni o'qishiga turtki bo'ladi. Ilmiy dunyoqarash o'z ustida ishlash ilmiy kitoblar o'qish orqali shakllanadi va asta-sekin rivojlanib boradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishning omillaridan biri fanlarning o'zaro aloqadorligidir. Fanlarning o'zaro aloqadorligi, ijtimoiy va tabiiy omillarning o'zaro muvofiq bo'lganligidan, ijtimoiy munosabatdan unumli foydalanishga intilish maqsadga muvofiq bo'ladi. Bir fanni ikkinchi fangabog'lash orqali o'quvchining boshqa fanlarga qiziqishi ortadi. Bolaning dunyoqarashinshakllantirish omillaridan yana biri muammoli ta'lim. Muammoli ta'lim dars jarayoni muhim ro'l o'ynagani kabi ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda ham muhim jarayon. Muammoli ta'limning ilmiy dunyoqarashni shakllantirishdagi o'riniga to'xtalsak quyidagilarni qamrab oladi: O'quvchilarni ilmiy, didaktik, ijodiy fikrlashga o'rgatadi, u o'quv materiallarini ishonarli qiladi, bu bilan bilimlarning e'tiqodga aylanishiga ko'maklashadi, u odatda ancha ta'sirchan bo'lib, chuqur intellektual his-tuyg'ular, shu jumladan ko'tarinki ruh, hissini o'z imkoniyatlari va kuchiga ishonch mas'uliyati vujudga keltiradi, shuning uchun u o'quvchilarni



qiziqtiradi, ilmiy bilishga jiddiy qiziqishni tarkib toptiradi. Haqiqat qonuniyatning mustaqil kashf etilishi olingan bilimlarni unutmasligi aniqlab chiqilgan, mustaqil hosil qilingan bilimlar unutilgan taqdirda ham ularni tez qayta tiklash mumkin. O'quvchilarning ilmiy dunyoqarashini paydo qiladi rivojlantiradi va kengaytiradi shu bilan birgalikda ma'naviyatini oshiradi. Ilmiy dunyoqarashni shakllantirishda rebuslarni qo'llash. Rebus sur'at, harf va ba'zi belgilari foda etiladigan topishmoq. Rebuslar birinchi navbatta qiziqarli bolani qiziqтира oladi, o'yin orqali tushuntirish samara beradi.

Xulosa.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak hamma narsaning tag zamirida albatta mehnat, harakat yotadi. Har bir o'qituvchi yuqorida keltirilgan usullar orqali bola bilan harakat ishlasa albatta natijaga erishadi. Albatta yosh avlod bizning kelajagimizdir. Har bir shaxs ilim yo'lida harakat qilar ekan, o'zining jamiyatga kerak ekanligini, uning bir bo'lagi ekanligini his etsa, albatta O'zbekiston rivojlanishda yuqori cho'qqilarga erishadi. Bularning hammasi yoshlikdagi olingan ilmiy bilimlarga bog'liq.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik- didaktik asoslari (Ijtimoiygumanitar yo'nalishlardagi akademik litseylarda matematika o'qitish misolidi).: p.f.n. diss. – Toshkent: TDPU. 2006. – 49 b.
2. Abduqodirov A.A. Ta'limda innovatsion texnologiyalar. – Toshkent: Iste'dod, 2008. – 180 b.
3. Primov Sh.Q. Bo'lajak o'qituvchilar kommunikativ kompetentligini rivojlantirish: Dis. ... ped. fan. nom. (PhD) – Toshkent, 2020. – 114 b.